
The psycholinguistic essence of developing students' oral speech competence

Atamirzayeva E'zoza Bekmirzayevna
atamirzayevaezoza@gmail.com
Senior Lecturer,
Ishokhon Ibrat Namangan State Institute of
Foreign Languages

Annotation *This article analyzes the psycholinguistic essence of developing students' oral speech competence. It highlights the psychological and linguistic mechanisms of speech activity, particularly the role of perception, memory, thinking, motivation, and language units in the speech production process. The study also examines the significance of the psycholinguistic approach in the formation of students' communicative competence, the factors influencing the development of oral speech, and effective pedagogical methods. The findings indicate that taking psycholinguistic factors into account in the process of developing oral speech competence contributes to improving the effectiveness of education.*

Keywords *Oral speech competence, psycholinguistics, speech activity, communicative competence, language and thinking, speech perception, motivation, memory, communicative approach, educational process*

Talabalarda og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning psixolingvistik mohiyati

Atamirzayeva E'zoza Bekmirzayevna
atamirzayevaezoza@gmail.com
Katta o'qituvchi,
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat
chet tillari instituti

Annotatsiya *Mazkur maqolada talabalarda og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning psixolingvistik mohiyati tahlil qilinadi. Nutq faoliyatining psixologik va lingvistik mexanizmlari, xususan, idrok, xotira, tafakkur, motivatsiya hamda til birliklarining nutq jarayonidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda psixolingvistik yondashuvning ahamiyati, og'zaki nutqni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va samarali pedagogik usullar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda psixolingvistik omillarni hisobga olish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar *Og'zaki nutq kompetensiyasi, psixolingvistika, nutq faoliyati, kommunikativ kompetensiya, til va tafakkur, nutq idroki, motivatsiya, xotira, kommunikativ yondashuv, ta'lim jarayoni*

Психолингвистическая сущность развития компетенции устной речи у студентов

Атамирзаева Эъзога Бекмирзаевна
atamirzayevaezoza@gmail.com
Старший преподаватель,
Наманганский государственный
институт иностранных языков имени
Исхакхона Ибрата

Аннотация *В данной статье анализируется психолингвистическая сущность развития компетенции устной речи у студентов. Освещаются психологические и лингвистические механизмы речевой деятельности, в частности роль восприятия, памяти, мышления, мотивации и языковых единиц в процессе речевой коммуникации. Кроме того, рассматриваются значение психолингвистического подхода в формировании коммуникативной компетенции студентов, факторы, влияющие на развитие устной речи, а также эффективные педагогические методы. Результаты исследования показывают, что учет психолингвистических факторов в процессе развития компетенции устной речи способствует повышению эффективности обучения.*

Ключевые слова *Компетенция устной речи, психолингвистика, речевая деятельность, коммуникативная компетенция, язык и мышление, восприятие речи, мотивация, память, коммуникативный подход, образовательный процесс*

Metodika va psixologiya fanlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, chet til o'qitish samaradorligi ko'p jihatdan talabaniing psixologik holati, motivatsiyasi, mustaqilligi hamda erkin kommunikativ muhit yaratilishiga bog'liqdir. Shu bois zamonaviy chet til o'qitish metodikasida psixologik omillarni hisobga olish muhim metodik tamoyillardan biri hisoblanadi. Chet tillarni o'qitish metodikasi uchun tafakkur, xotira, idrok kabi psixologik jarayonlar, shuningdek bilim, ko'nikma va malaka kabi psixologik tushunchalarning mohiyatini, ularning qanday shakllanishi va rivojlanishini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki metodika fanining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Bilim, ko'nikma va malaka tushunchalari hamda ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish chet til ta'limining psixologik asoslarini

anglashda muhim hisoblanadi. Quyida ushbu tushunchalarning mohiyatiga to'xtalamiz.

Bilim tushunchasi kundalik hayotda eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biridir. Biroq "bilim", "ilm" va "ilmiylik" tushunchalarining mazmunini aniq farqlash har doim ham oson emas. Bilim deganda shaxsning ma'lum bir sohada egallagan ilmiy tajribasi, tushunchalari va ma'lumotlari tushuniladi (Makhkamova, 2014). Masalan:

1. lingvistik bilim;
2. grammatik bilim;
3. fonetik bilim;
4. leksik bilim;
5. tilga oid bilimlar.

Til ta'limi jarayonida bunday nazariy bilimlar amaliy faoliyat orqali ko'nikmaga aylantirilishi lozim.

Ko'nikma deganda ongli ravishda bajariladigan ish-harakat tushuniladi. Bilimlar

mashqlar yordamida ko'nikmaga aylantiriladi. Masalan, fransuz yoki ingliz tilida otlarning ko'plik shaklini yasash qoidalarini bilish grammatik bilim hisoblanadi. Ushbu qoidalarni amaliy nutqda to'g'ri qo'llay olish esa grammatik ko'nikmani tashkil etadi. Demak, ko'nikma nazariy bilimlarning amaliy faoliyatda ongli ravishda qo'llanilishidir. Ko'nikmalar muntazam mashq qilish natijasida rivojlanib, malaka darajasiga ko'tariladi.

Malaka deganda esa qisman avtomatlashgan ko'nikmalar tushuniladi. Masalan:

- a) tinglab tushunish malakasi;
- b) gapirish malakasi;
- c) o'qish malakasi;
- d) yozish malakasi.

Bunday malakalar maqsadga yo'naltirilgan va muntazam bajariladigan mashqlar orqali shakllantiriladi hamda rivojlantiriladi.

Ta'lim jarayonida quyidagi ketma-ketlik asosida yuqori natijaga erishish mumkin:

bilim → mashq → ko'nikma → mashq → malaka → mashq → mahorat

Mazkur tizim chet tilini o'rganish jarayonining psixologik va metodik asosini tashkil qiladi.

Metodist olim R. Zaripova (1986) ham chet tillarni o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalarning muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. Olim umumiy bilimlar deganda insonning bilish jarayonida tabiat va jamiyat haqidagi egallagan ma'lumotlarini tushunadi hamda ularni ikki turga ajratadi:

1. Til materialining o'ziga oid bilimlar;
2. Til materiali bilan bajariladigan faoliyatga oid bilimlar.

Birinchi turga fonetik, grammatik va leksik materiallarga oid bilimlar kirsam, ikkinchi turga ushbu materiallarni amaliy nutq faoliyatida qo'llash usullari kiradi. Chet til o'qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish asosiy metodik maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy metodikada mashq va

amaliy faoliyatga alohida e'tibor qaratiladi (Zaripova, 1986).

Til materiali asosida nutq faoliyatlari amalga oshiriladi, ya'ni nutqiy malakalarni shakllantirishga erishiladi. Bilim, ko'nikma va malakalar og'zaki nutqni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi (Zimnaya, 1991). Agar talaba o'rganilayotgan tilning grammatika, leksika va fonetikaga oid bilimlariga ega bo'lmasa, u grammatik jihatdan to'g'ri gap tuza olmaydi. Shuningdek, so'zlarni noto'g'ri qo'llashi natijasida uning fikri noto'g'ri qabul qilinishi va turli tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Talaffuzdagi kamchiliklar esa tinglovchining so'zlovchi fikrini to'liq tushunmasligiga sabab bo'ladi. Shu bois o'qituvchi dars jarayonida talabalarning egallagan nazariy bilimlarini turli mashqlar yordamida amaliy ko'nikmaga aylantirishiga alohida e'tibor qaratishi zarur. Shuningdek, hosil qilingan ko'nikmalarni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Nutqqa oid ko'nikmalar muntazam mashqlar va amaliy faoliyat orqali rivojlanib, asta-sekin malaka darajasiga ko'tariladi.

Xotira — inson ongida aks etgan narsa va hodisalarni, shuningdek o'tmish tajribalarini esda saqlash hamda zarur bo'lganda qayta tiklashdan iborat psixik jarayondir. U nerv tizimining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq muddat saqlash hamda uni ong faoliyati va xulq-atvor jarayonida qayta tiklash qobiliyatida namoyon bo'ladi (Jinkin, 1982). Gapirish jarayonida xotira muhim rol o'ynaydi. Talaba og'zaki nutq davomida kerakli so'zlarni eslab qolish, grammatik strukturalarni xotirada tiklashi, nutq mavzusini unutmasligi, kommunikativ vaziyatga mos til birliklarini tanlay olishi talab etiladi. Agar xotira yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, gap tarkibidagi so'z va birikmalar o'zaro grammatik hamda mantiqiy jihatdan bog'lanmay qoladi. Chunki nutqning keyingi qismi avvalgi qism bilan uyg'unlasha olmaydi va natijada fikr tushunarsiz bo'lib qoladi.

Masalan: "Ustoz, sizni ... xalq oldida qilgan ulkan xizmatlaringizdan biz minnatdormiz."

Ushbu misolda so'zlovchi "Ustoz, sizni..." qismini aytgandan keyin fikrni qanday davom ettirish haqida o'ylash jarayonida avvalgi grammatik modelni unutilib qo'ygan. Natijada tushum kelishigida qo'llangan "sizni" so'zi gapning keyingi qismi bilan grammatik va mantiqiy jihatdan bog'lanmay qolgan. Talaba o'z fikrini fransuz tilida og'zaki bayon qilish jarayonida fonetik, leksik va grammatik bilimlariga tayanadi. Ya'ni uning xotirasida fransuz tilining grammatik qoidalari, fe'llarning tuslanishi, artikllarning qo'llanishi, so'z tartibi va nutqiy modellar saqlanadi.

Masalan: Il a pris le médicament. — U dori qabul qildi.

Mazkur misolda talaba "médicament (dori)" so'zi bilan "prendre un médicament (dori ichmoq)" birikmasi qo'llanishini, "boire (ichmoq)" fe'li ushbu vaziyatda ishlatilmasligini hamda "prendre (olmoq)" fe'lining passé composé zamonida "avoir" yordamchi fe'li bilan qo'llanishini xotirasidagi til birliklari asosida to'g'ri ifodalaydi. Og'zaki nutqni bayon qilishda xotira bilan bir qatorda diqqat ham katta ahamiyatga ega. Chunki so'zlovchining diqqati jamlangan bo'lsagina, u o'z fikrini tinglovchiga aniq va tushunarli yetkaza oladi.

Diqqat — subyekt faoliyatining muayyan obyekt yoki hodisaga yo'naltirilishidir. U har qanday ongli faoliyat samaradorligining zarur sharti hisoblanadi. Bosh miya po'stlog'ining ma'lum qismlaridagi optimal qo'zg'alish manbalari diqqatning fiziologik asosini tashkil etadi. I. Zimnyaya fikricha, diqqatning barqarorligi va nutqiy motivatsiya og'zaki nutq faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim psixologik omillardan biridir.

Gapirish jarayonida muhim o'rin tutuvchi yana bir psixologik mexanizm bu — faraz qilishdir.

Faraz (yunoncha "hypothesis" — asos, taxmin) — oldindan o'rganilgan fakt va hodisalarga tayangan holda ilgari suriladigan nazariy taxmindir. Nutq faoliyatida faraz qilish

tinglovchi yoki so'zlovchiga keyingi fikrni oldindan taxmin qilish, nutq mazmunini tezroq anglash hamda kommunikativ vaziyatga mos reaksiya bildirish imkonini beradi. Masalan, fransuz tilida suhbat davomida: — *Qu'est-ce que tu vas faire demain ?* savolini eshitgan talaba keyingi mavzu reja yoki kelajak faoliyat bilan bog'liq bo'lishini oldindan taxmin qila oladi. Xotira, diqqat va faraz qilish kabi psixologik mexanizmlar o'zaro uyg'un faoliyat olib borgandagina gapirish jarayoni samarali kechadi. Shu sababli fransuz tilini o'qitishda ushbu psixologik omillarni hisobga olish og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda muhim metodik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, psixologiya nutqni ichki va tashqi, aktiv va passiv, og'zaki va yozma, reseptiv va reproduktiv nutq turlariga ajratadi. Tashqi nutqda inson o'z fikrini og'zaki ravishda ifodalaydi va bu jarayon gapirish orqali amalga oshiriladi. Bunda shaxs avvalo fikrni ichki ravishda shakllantiradi, rejalashtiradi va shundan keyingina uni tashqi nutq shaklida ifodalaydi. Nutqning mazmunli, izchil va mantiqiy bo'lishi dastlab ichki nutqning shakllanishiga, keyinchalik esa tashqi nutqning yuzaga kelishiga bog'liqdir (Leontiev, 1975). Shu sababli metodika fanida talabalarga nutq o'rgatishda avvalo ichki nutqni rivojlantirish, so'ng uning asosida tashqi nutqni shakllantirish tavsiya etiladi. Ichki nutq insonning fikrlashi, mulohaza yuritishi va nutqni ongida rejalashtirishi asosida yuzaga keladi. Oldindan fikrlamasdan gapirish ko'pincha mantiqsiz va izchil bo'lmagan nutqni yuzaga keltiradi. Bu holat ayniqsa chet tilini o'rganish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki talaba chet tilida gapirish davomida bir vaqtning o'zida ikki xil faoliyatni amalga oshiradi:

1. fikrlash va nutq mazmunini shakllantirish;
2. ushbu fikrni chet til vositalari orqali ifodalash va og'zaki bayon qilish.

Shu sababli chet tilida gapirish murakkab psixologik va psixolingvistik jarayon hisoblanadi. Gapirish faoliyati murakkablik darajasiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

- a) his-hayajonni ifodalovchi alohida so'z yoki undovlardan;
- b) predmet nomini aytishdan;
- c) savolga javob qaytarishdan;
- d) ma'lum mavzu yoki reja asosida keng fikr bayon qilishgacha bo'lgan nutqiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Nutq esa gapirish jarayonining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarga ko'ra, gapirish jarayoni uch bosqichdan tashkil topadi:

1. Tuzish bosqichi- Bu bosqichda nutq vaziyati va tinglovchi hisobga olinadi hamda nima haqida va qanday gapirish kerakligi rejalashtiriladi.
2. Ko'chirish bosqichi- Mazkur bosqichda shakllangan fikr til vositalariga ko'chiriladi, ya'ni qanday grammatik konstruktsiya, leksik birlik va fonetik vositalardan foydalanish belgilab olinadi.
3. Ijro bosqichi-Bu bosqichda fikr og'zaki ravishda ifodalanadi. Artikulyatsiya, intonatsiya, mimika va tana tili yordamida nutq tashqi shaklga chiqariladi.

N. Zinkin va I. Zimnyaya ham gapirishni uch tarkibli nutqiy faoliyat sifatida tavsiflaydilar. Olimlarning fikricha, avvalo gapirishga ehtiyoj, ya'ni motivatsiya yuzaga kelishi kerak. Insonda fikrni ifodalashga ichki ehtiyoj paydo bo'lgandagina nutqiy faoliyat boshlanadi. Keyingi bosqichda esa inson, axborot yetkazish, savolga javob berish, iltimos qilish, buyruq berish, munosabat bildirish kabi kommunikativ harakatlarni amalga oshirishga kirishadi. Aynan shu bosqichda gapirish niyati shakllanadi va nutqiy faoliyat yuzaga chiqadi.

A. Leontyev ta'kidlashicha, gapirish faoliyatining samaradorligi motivatsiya, ichki nutqning rivojlanganligi hamda til vositalarini tezkor tanlay olish qobiliyatiga bog'liqdir. Og'zaki nutqning muvaffaqiyatli amalga oshishi ichki va tashqi nutqning uyg'unligi, motivatsiya, tafakkur, xotira hamda psixolingvistik mexanizmlarning o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Fikrni ifodalash bosqichida analiz va

sintez kabi tafakkur amallari faol ishga tushadi. So'zlovchi o'z xotirasida mavjud bo'lgan leksik birliklar va grammatik strukturalarni tanlaydi hamda ularni kommunikativ vaziyatga mos ravishda qo'llaydi. Nutq gapirish jarayonida fikrning to'raligi va kommunikativ vaziyatga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi.

1. *Tasodifiy nutq* - Bu turdagi nutqda so'zlovchi fikrni mustaqil ravishda shakllantiradi hamda uni ifodalash uchun kerakli til vositalarini ongli ravishda tanlaydi. F. Kaynz bunday nutqni spontan nutq deb ataydi va uni tashqi ta'sirsiz, ichki ehtiyoj asosida yuzaga keladigan nutq sifatida tavsiflaydi. Masalan: talabning fransuz tilida erkin mavzu yuzasidan mustaqil fikr bildirishi tasodifiy nutq hisoblanadi.
2. *Javob nutqi* - Javob nutqi savolga reaksiya bildirish asosida yuzaga keladi. Fransuz tilida bu holat: *réagir* — "munosabat bildirmoq" tushunchasi bilan bog'liqdir. Bunda talaba berilgan savolni fikran tahlil qiladi va unga mos javob qaytaradi. Masalan:
— *Qu'est-ce que tu fais le week-end?*
— *Je lis des livres et je regarde des films.*
3. *Taqlidiy nutq*. Taqlidiy nutq avval tinglangan yoki o'qilgan materialni eslab qolish va takrorlash orqali yuzaga keladi. Fransuz tilida: *imiter* — "taqlid qilmoq" ma'nosini anglatadi. Mazkur nutq turida talabalar asosan fonetik mashqlarni bajaradilar. Ayniqsa: talaffuz, intonatsiya, urg'u, bog'lanish (*liaison*) kabi fonetik hodisalarni o'zlashtirishda taqlidiy mashqlar katta ahamiyatga ega. Masalan: talabning audio matnning tinglab, diktorga talaffuziga taqlid qilishi taqlidiy nutqqa misol bo'ladi.
4. *Yodlangan nutq*. Bu nutq turi avval yodlab olingan materialni qayta aytish bilan xarakterlanadi. Mazkur nutq kommunikativ vaziyat bilan to'liq bog'liq bo'lmasligi mumkin. Bunga she'rlar, qo'shiqlar, maqollar, dialog namunalari, kichik matnlarni yod aytish

kiradi. Nutqning shakllanishi masalasi yuzasidan psixolog va psixolingvist olimlar turli fikrlarni ilgari surganlar. F. Kaynz nutqning shakllanish jarayoni to'rt bosqichdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, nutqning yuzaga kelishi motivatsiya, tafakkur, til vositalarini tanlash va nutqni ijro etish kabi psixologik hamda lingvistik jarayonlarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshadi. Bizning fikrimizcha, nutqni qiyoslash og'zaki nutqni amalga oshirish jarayonida ma'lum darajada qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Chunki har bir talaba o'z nutqini doimiy ravishda qiyoslay olish qobiliyatiga ega bo'lavermaydi. Biroq nutqni nazorat qilish chet tilida gapirish jarayonida juda ko'p uchraydigan holat hisoblanadi. Ayniqsa, bu holat fransuz tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalar monologik nutq so'zlayotgan paytda yaqqol kuzatiladi. Ko'plab hollarda talabalar fransuz tilida aytayotgan so'zlari yoki gaplarini nazorat qilishga harakat qiladilar va suhbat davomida o'z xatolarini mustaqil ravishda tuzatadilar. Ba'zi talabalar esa ikkilanayotgan so'z yoki grammatik konstruksiyaning to'g'ri yoki

noto'g'riligini aniqlash uchun uni ovoz chiqarib aytib ko'radilar va gapning ohangiga, talaffuziga yoki grammatik tuzilishiga qarab o'zlarini tuzatadilar.

Psixologlarning nutq shakllanishi haqidagi fikrlarini o'rganish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi: gapirish faoliyatiga turli motiv va ehtiyojlar ta'sir ko'rsatadi. Nutq faoliyatining yuzaga kelishida insonni muloqot qilishga undovchi ichki sabablar muhim o'rin egallaydi. I. Zimnyaya gapirishga undovchi motivlarni uch guruhga ajratadi:

1. Ma'naviy va bilish motivlari;
2. Axloqiy motivlar;
3. Hissiy-estetik motivlar.

Mazkur motivlar insonning yangi bilim olishga, dunyoqarashini kengaytirishga, boshqa xalqlarning madaniyati va tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liqdir. Chet tilida gapirishga o'rgatishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan motivlarning kuchiga, ularning muntazamligiga, barqarorligiga, talabaning ichki ehtiyojiga bog'liqdir. Shu sababli fransuz tilini o'qitishda talabalarda kommunikativ motivatsiyani shakllantirish, ularni hissiy jihatdan qiziqitira oladigan mavzular va kommunikativ vaziyatlardan foydalanish muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Jinkin, N. I. (1982). *Rech kak provodnik informatsii* [Speech as a means of information transmission]. Nauka.
2. Leontiev, A. N. (1975). *Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost* [Activity. Consciousness. Personality]. Politizdat.
3. Makhkamova, G. T. (2014). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar chet tili ta'limida* [Innovative pedagogical technologies in foreign language education]. Fan va texnologiya.
4. Zaripova, R. A. (1986). *Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma* [A guide to foreign language teaching methodology]. Toshkent.
5. Zimnyaya, I. A. (1991). *Psixologiya obucheniya inostrannym yazykam v shkole* [Psychology of teaching foreign languages at school]. Prosveshcheniye.